



## JISMONIY TARBIYA FANLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RNI

Tangirov Davlat Tug'ilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis inistituti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684625>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> June 2025

Accepted: 05<sup>th</sup> June 2025

Published: 17<sup>th</sup> June 2025

### KEYWORDS

*zamonaviy axborot, ta'lim tarbiya jarayoni, jismoniy tarbiyada multimediya, mediasavodxonlik, internet vositalari, ko'z mashqlari.*

### ABSTRACT

*Bugungi kunda talabalarni jismoniy tarbiya faniga oid bilim va savodxonligini oshirish bevosita ta'lim muassasalarining moddiy –texnika va zamonaviy axborot texnologiyalari bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va majmualarni yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir.*

Ta'lim jarayonining jadal rivojlanib borayotgan davrda asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan axborot texnologiyalarining taraqqiyotimizdagi o'rni beqiyosdir, chunki iqtidorli, mustaqil, o'ziga ishonch-e'tiqodli yoshlarga bilim berish, ularni tarbiyalash va zamon talabiga mos yetuk mutaxassislar qilib tayyorlashda ta'lim –tarbiya tizimi muhim asos bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayonida talabalarning kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirishimiz va ulardan unumli foydalanish yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishimiz kerak bo'ladi.

Bugungi kunda talabalarni jismoniy tarbiya faniga oid bilim va savodxonligini oshirish bevosita ta'lim muassasalarining moddiy –texnika va zamonaviy axborot texnologiyalari bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va majmualarni yaratish, electron kutubxonalar tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuning uchun ham talabalarga zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalar bilan jihozlanmoqda.

Bu esa, o'qituvchi pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvini, dars berish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligini talab etadi. o'quv jarayonida yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini joriy etilish o'qituvchilarning texnikaviy vositalardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga ularning dars jarayonidagi o'rni, vazifalari va rolini o'zgartiradi. Jismoniy tarbiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya fanlarini o'qitish jarayonida juda katta miqdordagi axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, qayta ishlash, o'z o'rnida qo'llay olish va uzatish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Shu jumladan kompyuterlardan

foydalanib o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalar vositalari orqali pedagog xodimlar hamda talabalar juda ko'p miqdordagi malumotni olish va mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.

Tajriba shuni ko'rsatadiki jismoniy tarbiya fanlarini o'qitishda multimediyali taqdimot dasturlaridan keng ko'lamda foydalanish juda katta samara beradi. Demak multimediali o'quv qo'llanmalar yaratish lozim. Shuning uchun ularni yaratishda ta'lim jarayonini tashkil etishning psixologik va pedagogik tamoyillariga asoslanish kerak bo'ladi.

Jismoniy tarbiya fanlarini multimedia texnologiyalari asosida o'qitish uchun amaliy mashg'ulotlarining har bir mavzu bo'yicha dars ishlanmasi yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositasi yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan amaliy mashg'ulotlariga tegishli materiallarning elektron taqdimot shakli tayyorlanadi. Natijada talabalar mustaqil ravishda o'z ustida ishlash imkoniyati yaratiladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali, balki, ovoqli, animatsiyali bo'lishi talabalar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Jismoniy tarbiya fanlarini o'qitish jarayonida Internet tarmog'i insoniyat rivojlanishi nuqtai nazardan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yangiligi, o'ziga xosligi inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan doira va maqsadlarda foydalanilishi bilan alohida o'rin tutadi. Internet vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish o'z axborot – ta'lim muhitini kengaytirish, kasbiy rivojlanish va mustaqil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish, jamiyat axborot resurslaridan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish, hamkasblari bilan muloqot qilish, dolzarb muhokamalar masalasida ishtirok etish, tarmoqning turl tadbirlarida ishtirok etish va hakoza imkoniyatlarni beradi.

Ularni mustaqil o'rganish, fikrlash, kerakli muammolarni anglab yetishga va uning yechimlarini mustaqil izlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Buning uchun esa psixologik-pedagogik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish jarayonida o'qituvchi talabani quyidagilarni amalga oshirishga to'g'ri yo'naltirish kerak bo'ladi.

- a) Uyga berilgan vazifalarni bajarish va qo'shimcha axborotlarni izlab topish zarurligi;
- b) Berilgan topshiriqlarni bajarilish muddatiga rioya etish va uni talab darajasida bajarilish ma'suliyatini his etish;

Axborot texnologiyalari asosida talabalarda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarni ijobiy yechimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etishga jalb qilish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar talabchan, turli narsalarga qiziquvchan, kompyuter orqali ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishni istaganliklari uchun doimiy ravishda tashqi muhit bilan ulanish, axborotlar almashinuvini amalga oshirish uchun eng avvalo ta'lim muassasalaridagi kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan bo'lishi, o'zlarining web-saytlardan foydalanish esa talabalarni o'quv-tarbiyaviy ishlarga jalb qilish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish hamda o'zlarini amalga oshirgan ishlarini, erishgan yutuqlarini yoshlar ommasiga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Darslik. - M.: Xalq ta'limi, 1998 yil ( Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998 г.) / ( Selevko G.K. Modern educational technologies: Textbook. - M.: Public education, 1998 ).
2. Azixhadjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent:TDPU, 2003. 175-bet.
3. Buriboev A. «Pedagogik texnologiya» T., 2004 .
4. Шуркова Н.Е. Педагогическая технология. - Москва: Педагогическое общество России. 2002.

5. Lukyanenko V.P. Bepalko V.P. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari. - M.: Ma'rifat, 1999 yil (Лукьяненко В.П. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Просвещение, 1999 г.) / ( Lukyanenko V.P. Bepalko V.P. Components of pedagogical technology. - M.: Enlightenment, 1999)
6. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008, 3-48 bet. (Пирахунова Ф.Н., Назиров А.Х. Новые педагогические технологии обучения. Методическое руководство. - Т.: "ЭКОНОМИКА-ФИНАНСЫ". 2008, стр. 3-48.) (Pirakhunova F.N., Nazirov A.Kh. New pedagogical technologies of teaching. Methodical guide. - T.: "ECONOMY-FINANCE". 2008, pp. 3-48.)
7. Mirzakarimov Yu. A. (2021) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 4), 25-30. ( Мирзакаримов Ю. А. (2021) Восточный ренессанс: инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 1 (Спецвыпуск 4), 25-30.) / (Mirzakarimov Yu. A. (2021) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 4), 25-30 ).
8. Abdullayeva o'. X. (2022) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 5/2), 187-193. (Абдуллаева О. Х. (2022) Восточный ренессанс: инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (спецвыпуск 5/2), 187-193.) / (Abdullayeva O. X. (2022) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 5/2), 187-193.)

INNOVATIVE  
ACADEMY